

CHO'L LANDSHAFTLARI TABIATINING SHAKLLANISH JIHATLARI

R.Usmanova – Qarshi davlat universiteti dotsenti

M.I.Tillayeva – Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

Annotatsiya. Maqolada cho'l landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida yetakchi omillari haqida yoritib o'tilgan. O'rta Osiyoda cho'l landshaftlarining shakllanish xususiyatlari, jumladan, Qarshi cho'lining o'ziga xos jihatlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. arid, cho'l, bug'lanish, yog'in, landshaft, zonallik, regional, subtropik, tropik, mo'tadil.

АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРИРОДЫ ПУСТЫННЫХ ЛАНДШАФТОВ

Р.Усманова – доцент Каршинского государственного университета

М.И.Тиллаева – студентка Каршинского государственного университета. Узбекистан.

Аннотация. В статье рассматриваются ведущие факторы возникновения, формирования и развития пустынных ландшафтов, их географического распространения в пространстве и времени. Описаны особенности формирования пустынных ландшафтов в Средней Азии, в том числе особенности пустыни Карши.

Ключевые слова. засушливый, пустынный, испарительный, осадочный, ландшафтный, зональный, региональный, субтропический, тропический, умеренный.

ASPECTS OF THE FORMATION THE NATURE OF DESERT LANDSCAPES

R.Usmanova – Associate Professor, Karshi State University

M.I.Tillayeva – Student, Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract. The article examines the leading factors of the emergence, formation and development of desert landscapes, their geographical distribution in space and time. The features of the formation of desert landscapes in Central Asia, including the features of the Karshi desert, are described.

Key words. arid, desert, evaporative, sedimentary, landscape, zonal, regional, subtropical, tropical moderate.

Kirish. Yer sharida issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi tufayli zonallik yuzaga kelgan. Jumladan, Yer yuzasi relyefining xilma-xilligi, quruqlik va dengizlarning bir xilda taqsimlanmaganligi, landshaftlarning rang-barangligi va rivojlanishi zonal va azonal omillarning yig'indisining o'zaro ta'siri natijasidir. Jahondagi cho'llarni o'rganish va o'zlashtirish muammosi keyingi yillarda ko'pgina mamlakatlardagi olimlarning, shu jumladan geograflarning ham tadqiqot

obyektlaridan biri hisoblanadi. Cho'llarni o'rganishda BMT YUNESKOning arid zona bo'yicha komissiyasining faoliyati ancha katta imkoniyat yaratdi. YUNESKO Arid zonasi bo'yicha komissiya faoliyatining ilmiy ma'ruzalari va tavsiyalari "Arid zonani tadqiq qilish –*Arid Zone Research*" deb nomlangan 30 dan ziyod to'plamlarda chop etildi. Binobarin, bizning ilmiy izlanishlarimizda ham arid zonalarda shakllangan cho'llarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Cho'llar – geografik qobiqda, Yer yuzasida issiqlik va namning o'ziga xos taqismlanishi va organik olamning unga bog'liq holda rivojlanishi natijasida tarkib topadigan zonal landshaft tipidir. Cho'l landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi o'rin tutadi. Bular geografik qobiqning zonalligi, issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi, orografik to'siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarining materik sohillariga ta'siri va boshqalardir.

Cho'l landshaftlarining asosiy qismi subtropik, tropik va mo'tadil mintaqalarga to'g'ri keladi. Cho'l landshaftlari muayyan zonal, regional xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, o'zining alohida shakllangan ekologik sharoiti bilan yashovchi qonyniyatlariga, rivojlanish va degradatsiyalanish jarayonlarida o'ziga xos xususiyatlariga, dinamik o'zgarish shakllariga ega bo'lgan tabiiy geografik hosiladir. Arid iqlim sharoitida vujudga kelgan cho'l landshaftlari materiklarning ichki qismlarida, okean va dengiz sohillarida, yirik tog' oralig'i botiqlarida, orografik to'siqlarida, baland tog' va platolarda keng tarqalgan.

Berk havzali O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi mo'tadil mintaqalarda joylashgan bo'lib, cho'l landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va barqaror rivojlanishi uchun hududda hukmronlik qiluvchi arid iqlimli tabiiy geografik muhitning ta'siri katta. O'rta Osiyo o'kasining geografik o'rni, okeanlardan uzoqda joylashganligi, mussonlardan tog' tizmalari bilan to'silganligi, yoz oylarida termik depressiyaning vujudga kelishi, atmosfera yog'inlarining kam bo'lishiga va arid iqlim sharoitining shakllanishiga sabab bo'ladi. Natijada o'lkada yog'in miqdori 100-200 mm dan oshmaydi. [4;132-136 b., 5; C.1090-1095].

Olimlar o`rtasida hozirga qadar «cho`l» atamasi bilan «arid» atamasini tushinishda mutanosiblik yo`q. Ma`lumki, cho`l landshaftlarining aridlik (qurg`oqchilik) darajasi hamma yerda bir xil emas. Shuni e`tiborga olib A.G.Babayev va boshqalar (1986) arid yerlarni aridlik (qurg`oqchilik) darajasiga qarab ekstraarid (o`ta qurg`oqchil, doimiy qurg`oqchilik ehtimoli 75-100%), arid (qurg`oqchil, 50-75%) va chalaarid (chala qurg`oqchil, 20-40%) yerlarga ajratadilar [2; 318 b.].

Cho`l atamasining mazmuni esa cho`l landshaftlarining asosiy mohiyatini, ularning zonal va tipologik xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, O`rta Osiyoning cho`l landshaft zonasi ichki zonal farqlariga ko`ra shimoliy cho`l, o`rta yoki tipik cho`l va janubiy cho`lga bo`linadi. Cho`l landshaftlari tipologik xususiyatlariga ko`ra qumli cho`l, toshloqli cho`l, lyosli cho`l, gilli cho`l, sho`rxok cho`l kabilarga bo`linadi. Shunday ekan, O`rta Osiyoning eng katta cho`llaridan hisoblangan, Qizilqum va Qoraqum cho`llari ham arid landshaftlar guruhiga kiradi [1;6-10 b.].

M.P.Petrov (1973) Yer sharidagi cho`llarni o`rganib va tahlil qilib shunday xulosaga kelganki, qurg`oqchilik eng oxirgi nuqtaga borib taqalgan iqlim sharoitiga ega bo`lgan hududlarni cho`l deb atash mumkin [3; C.485].

Cho`llarga A.I.Solovyov va G.V.Karpov tomonidan 1983-yilda tuzilgan “Tabiiy geografiya bo`yicha lug`at-ma`lumotnoma”da (rus tilida) berilgan ta`rif geografik nuqtai nazardan ancha mukammal. Ularning fikricha “Cho`l – doimiy yoki mavsumiy issiq, qurg`oqchil, shuningdek, sovuq va quruq (tog`lar va tog`liklarda) iqlim va siyrak, kambag`al fitotsenozlar tarqalgan hududlardagi landshaft tipidir” [4; C.224].

Qarshi cho`li O`rta Osiyo o`lkasining janubiy qismi markazida O`zbekistonning janubi- sharqida, yani Qashqadaryoning quyi oqimida joylashgan. Qarshi cho`li hududi dengiz sathidan 260-500 m (shartli ravishda) balandlikda joylashgan bo`lib, uning janubiy va janubiy–sharqiy chegarasida joylashgan Alovuddin, Saksondara, Qoraqir va Do`ltali ko`tarilmalari Qashqadaryo va Amudaryo havzasining suvayirg`ichlari hisoblanadi. Shimoliy va janubiy-sharqiy qismi Zarafshon va

Hisor tog`larining tog`oldi tekisliklari bilan tutashgan bo`lib, bu tekisliklar daryo o`zanlari bilan kesilgan hamda to`lqinsimon parchalangan relyef shakllarini hosil qilgan.

Qarshi cho`lining janubiy chegarasi O`zbekiston va Turkmaniston davlatlari chegarasi orqali o`tsa, janubiy sharqiy chegarasi Hisor tog`larining g`arbiy yonbag`irlarigacha cho`zilgan, sharqiy chegarasi Kitob-Shahrisabz botig`i va Hisor tog`larining chekkka g`arbiy tog`oldi to`lqinsimon tepaliklaridan o`tkaziladi. Sharqda esa Shaxrisabz – Kitob botig`i bilan tutash bo`lib, ular orasidagi chegara relyefda ifodalanmagan. I.A.Xasanov (1981) ular orasidagi chegarani tepali – to`lqinsimon tog` oldi tekisligining g`arbiy chekkasi bo`ylab o`tkazishni taklif etgan [7; C. 112.].

S.I.Abdullayevning fikricha Qarshi cho`lining Kitob-Shahrisabz tektonik botig`i va G`uzor adirlari bilan hamda g`arbiy chegaralari relyefda yaqqol ifodalanmagan. Qarshi cho`li tektonik jihatdan janubiy Tojikiston tektonik depressiyasining Qoraqum cho`li bilan tutashgan g`arbiy qismida joylashgan [6; 94 b.].

Qarshi cho`li O`zbekiston Respublikasining Qashqadaryo (Qarshi cho`li hududining eng katta qismi), Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari hamda Turkmaniston Respublikasining Lebab (ilgarigi Chorjev) doirasida bo`lib, uning umumiy maydoni 13,6 ming km² ni tashkil etadi. Qarshi cho`li maydonining aksariyat katta qismi (86% dan ortiqrog`i yoki 11,7 ming km²) O`zbekistonda va qolgan qismi (1,9 ming km²) Turkmaniston hududi doirasida joylashgan. Biz Qarshi cho`lining O`zbekistonda joylashgan qismini o`rganish bilan cheklanamiz.

O`rta Osiyo janubiy qismining markazida joylashgan Qarshi cho`lining chegaralari shimolda Ziyoviddin-Zirabuloq tog`larining etaklari, janubiy - sharqda Hisor tizmasi, G`uzor, Dehqonobod past tog`lari bilan g`arbda va janubi-g`arbda Sho`rsoy cho`kmasining shimoliy chekkasi va Devxona hamda Chilgumbaz platolarining etaklari bo`ylab o`tadi. Qarshi cho`li Chilgumbaz platosi orqali Sandiqli qumli cho`lidan ajralib turadi [4;132-136 b.].

Qarshi cho`li geografik o`rniga ko`ra subtropik mintaqaning materik ichkarisidagi cho`llar zonasiga, gipsometrik sathiga ko`ra tekislik cho`llariga, iqlim

sharoitlariga ko'ra arid (quruq) cho'llarga, litologik-edafik va landshaft xususiyatlariga ko'ra asosan gilli va qumli cho'llarga mansubdir. Qarshi cho'lida cho'l landshaftlarining xususiyatlari va tuzilmasi landshaft hosil qiluvchi omillarning xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Havoning o'rtacha yillik harorati 14,3°C dan 17,0° gacha o'zgaradi. Eng past harorat -25,0° -27,0° C bo'lishiga qaramay hududda yanvar oyining o'rtacha harorati ijobiydir. Qarshi cho'li hududida yillik yog'in miqdori unchalik katta emas (Qarshida-237 mm, Muborakda-155 mm). Yoz faslining uzoq davom etishi oqibatida hududda yillik haroratning kattaligi natijasida bug'lanish 1700 mm ga yetadi, bu esa o'z navbatida namlik taqchilligi (defitsit)ni vujudga keltiradi. Iqlim bo'yicha rayonlashtirishda Qarshi cho'li alohida iqlim rayoni sifatida ajratiladi.

Xulosa. Qarshi cho'lining agroiklim imkoniyatlari va xususiyatlari bu yerda dehqonchilikni asosan sug'oriladigan sharoitlarda tashkil etishni taqozo etadi. Iqlim sharoitlarining bunday xususiyatlari Qarshi cho'lida suv resurslaridan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ammo bu hududning sug'orish uchun resurslari yetarli emas. Hududda qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori mahsulot olish sug'orma dehqonchilikni talab qiladi. Shu sababli Qarshi cho'lida obikor dehqonchilikni suv bilan ta'minlash Qashqadaryo havzasining va qo'shni havzalarning suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanilishi taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Абдулқосимов А.А., Аббосов С.Б. Чўлларнинг вужудга келиши, шаклланиши ва географик тарқалиши. //Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 28-жилд. –Тошкент, 2007. –Б. 6-10.

2. Бабаев А.Г. и др. Пустыни. Природа мира. –М.: Мысль, 1986. -318 с.

3.Петров М.П. Пустыни земного шара. –Л.: Наука, 1973. -435 с.

4. Соловьев А. И. Словарь-справочник по физической географии : кн. для учителя / А. И. Соловьев, Г. В. Карпов. - Москва : Просвещение, 1983. - 224 с.

4.Усманова Р. Ўрта Осиё чўлларининг ландшафт хусусиятлари //ҚарДУ хабарлари. Қарши . 2018. № 4. 132-136 б.

5.Усманова Р. История изучения ландшафтов бассейна Кашкадарьи. //ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал № 6(109) . 2023 г. www.iupr.ru 1090-1095 с.

6. Қашқадарё вилояти географияси. Қарши, 1994. 94 б.

7. Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. -Т.: Фан, 1981 . -С. 112.